O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 32.001

Munavvara K. KURBANBAYEVA ,
Mustaqil tadqiqotchisi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
UrDU assistent o‘qituvchisi, Urganch, O‘zbekiston
E-mail: tamaddunnuri1@gmail.com, https://orcid.org/0009-0002-6202-2064

QQDU professori, s.f.d A.Bayriyeva taqrizi asosida

DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada davlat boshqaruvida siyosiy tafakkurni rivojlantirish masalasi Sharq mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy merosi asosida tahlil qilinadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Ibn Xaldunning davlat, jamiyat, adolat, hokimiyat, inson fazilatlari va ijtimoiy taraqqiyotga doir qarashlari nazariy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda davlat boshqaruvida faoliyat yurituvchi shaxsning siyosiy tafakkuri uning axloqiy fazilatlari, bilim va ma’rifati, adolatparvarligi hamda jamiyat manfaatlarini anglash qobiliyati bilan bog‘liqligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Siyosat, davlat, jamiyat, davlat siyosati, adolat, siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyat, Sharq mutafakkirlari, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, “Fozil odamlar shahri”, “Kitob ash-shifo”, “Kitob as-Siyosat”, “Kitob an-Najot”, “Donishnoma”, “Kitob al-Ibar”, taraqqiyot, madaniyat.

THEORETICAL ANALYSIS OF EASTERN THINKERS’ DOCTRINES ON THE DEVELOPMENT OF POLITICAL THOUGHT IN STATE GOVERNANCE

Annotation

The article analyzes the development of political thought in state governance based on the political and philosophical legacy of Eastern thinkers. The views of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, and Ibn Khaldun on the state, society, justice, power, human virtues, and social development are examined theoretically. The study substantiates the relationship between the political thought of individuals engaged in state governance and their moral virtues, knowledge and enlightenment, commitment to justice, and ability to understand the interests of society.

Key words: Politics, state, society, public policy, justice, political thought, political culture, Eastern thinkers, al-Farabi, Ibn Sina, Ibn Khaldun, “The Virtuous City”, “The Book of Healing”, “The Book of Politics”, “The Book of Salvation”, “Danishnama”, “The Book of Lessons”, development, culture.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЧЕНИЙ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация

В статье анализируется вопрос развития политической мысли в государственном управлении на основе политико-философского наследия восточных мыслителей. Теоретически изучаются взгляды Абу Насра аль-Фараби, Абу Али ибн Сины и Ибн Халдуна на государство, общество, справедливость, власть, человеческие качества и социальное развитие. Исследование обосновывает связь между политической мыслью человека, работающего в государственном управлении, и его моральными качествами, знаниями и просвещенностью, справедливостью и способностью понимать интересы общества.

Ключевые слова: Политика, государство, общество, государственная политика, справедливость, политическая мысль, политическая культура, восточные мыслители, Аль-Фараби, Ибн Сина, Ибн Халдун, «Город добродетельных людей», «Книга исцеления», «Книга политики», «Книга спасения», «Книга мудрости», «Книга Ибара», развитие, культура.

Kirish. Sharqning o‘ziga xos siyosiy madaniyati qadimdan shakllangan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Ibn Xaldun kabi mutafakkirlarning siyosiy ta’limotlari davlat va jamiyat munosabatlarini anglash, davlat boshqaruvida inson omilining o‘rnini belgilash hamda siyosiy tafakkur mazmunini yoritishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Sharq davlatlarida shakllangan siyosiy-ijtimoiy va huquqiy normalar, axloqiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, an’analar, urf-odatlar, ma’rifat va ilm-fan bilan bog‘liq qarashlar siyosiy tafakkur rivojiga ta’sir ko‘rsatgan.

Davlat boshqaruvida siyosiy tafakkurni rivojlantirish masalasini tarixiy manbalar asosida o‘rganish bugungi davlat xizmati uchun ham nazariy ahamiyatga ega. Chunki davlat boshqaruvida vakolatli shaxslarning davlat siyosatiga munosabati, islohotlarning mazmun-mohiyatini anglash darajasi, siyosiy axloqi, xalq bilan muloqot qobiliyati va mas’uliyat hissi ularning siyosiy tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘rta asrlarda Sharqda davlat boshqaruvi va davlat xizmatchilarining siyosiy tafakkurini rivojlantirishga doir qarashlarni tahlil qilishda Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob as-Siyosat», «Kitob an-Najot», «Donishnoma», Ibn Xaldunning «Kitob al-Ibar» hamda Movardiyning «Ahkomi sultoniya» kabi asarlari muhim manba bo‘la oladi. Mazkur asarlarda davlat boshqaruvi, hukmdor fazilatlari, adolat, jamiyat tartibi va insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

O‘zbekiston siyosatshunoslik maktabida ham shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi, fuqarolik jamiyati, inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy davlat va davlat fuqarolik xizmati masalalariga e’tibor qaratilgan. Prezident Sh. Mirziyoyevning «Xalqimiz asrlar davomida diniy va dunyoviy ilmlarni o‘zaro uyg‘un rivojlantirish borasida noyob tajriba maktabini yaratgan...» mazmunidagi fikrlari ushbu tadqiqotning metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli-tahliliy va siyosiy-falsafiy tahlil usullaridan foydalanildi. Sharq mutafakkirlarining davlat va jamiyat haqidagi qarashlari davlat boshqaruvida siyosiy tafakkurning asosiy tarkibiy jihatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Bunda hukmdorning bilim va ma’rifati, adolatparvarligi, xalq bilan munosabati, davlat qonunlariga rioya etishi va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan faoliyati asosiy tahlil mezonlari sifatida olindi.

Tahlil va natijalar. Antik davr siyosiy tafakkuri Sharq mutafakkirlari qarashlarini tahlil qilish uchun muhim nazariy zamin yaratadi. Aristotel davlatni siyosiy hamjamiyat sifatida ko‘rib, davlat tuzilishi va boshqaruv shakllarini tahlil qilish zarurligini ilgari surgan. Uning «Siyosat» asarida davlat, siyosiy hamjamiyat va boshqaruv masalalari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi [2].

Aristotel qarashlaridan kelib chiqib, davlat boshqaruviga siyosiy baho berishda boshqaruvni kimlar amalga oshirayotgani, fuqarolar kimlardan iborat ekani va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar qanday yo‘lga qo‘yilgani muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda siyosiy tafakkur turli siyosiy qarash va tushunchalarni taqqoslash, ularning mazmunini anglash hamda davlat boshqaruvidagi siyosiy qiyofani baholash imkonini beradigan intellektual qobiliyat sifatida talqin qilinishi mumkin.

Abu Nasr Forobiy shahar va davlatni boshqaruvchi hukmdor shaxsiga qo‘yiladigan talablarni batafsil bayon qiladi. Uning ta’limotida hukmdor sog‘lom, nozik farosatli, kuchli xotirali, zukko, fikrini ravshan ifodalay oladigan, bilim va ma’rifatga intiladigan, o‘zini tuta biladigan, haqiqat va adolatni sevuvchi, oliyhimmat, mol-dunyoga berilmaydigan, adolatparvar hamda zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli va jasur bo‘lishi lozim. Forobiy bunday fazilatlarning barchasi bir shaxsda to‘liq mujassam bo‘lishi nihoyatda kam uchrashini qayd etadi [3].

Forobiyning mazkur qarashlari davlat boshqaruvida siyosiy tafakkur tushunchasining axloqiy va intellektual tarkibiy qismlarini ochib beradi. Hukmdorning bilimga intilishi, adolatni qaror toptirishi, haqiqatni anglashga qodirligi va jamiyat manfaatlarini ko‘zlashi siyosiy tafakkurning amaliy ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin.

Abu Ali ibn Sino Forobiy an’analarini davom ettirib, davlat va jamiyat masalalarini «Kitob ash-shifo», «Kitob as-Siyosat», «Kitob an-Najot» va «Donishnoma» asarlarida yoritgan. Uning siyosiy qarashlarida fuqarolarning axloqi, uy xo‘jaligi, shahar siyosati va davlatni tartibga soluvchi qonunlarning ahamiyati muhim o‘rin tutadi. Ibn Sino shaharlarni isloh qilish uchun jamiyatda adolatni qaror toptirish zarurligini ta’kidlab, hukmdorning jamiyatdagi salbiy hodisalarni bartaraf etish va fuqarolarning ma’rifiy darajasini yuksaltirishdagi roliga e’tibor qaratadi [4].

Ibn Sinoning davlat haqidagi qarashlarida qonun ijodkorligi va qonun ijrosini ta’minlash alohida ahamiyatga ega. U davlat qonunlari jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ekanini qayd etadi. Hukmdor qonun va adolatni ta’minlashga qodir bo‘lishi, davlat qonunlari esa tegishli diniy-huquqiy meyorlar bilan uyg‘un holda amal qilishi lozimligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi [5]. Shu jihatdan Ibn Sinoning siyosiy qarashlari davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy tafakkurning zarurligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, davlat siyosatini amalga oshirishda shaxsning axloqiy sifatlari, adolat haqidagi tasavvuri va jamiyatdagi jarayonlarni anglash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Xaldun jamiyatlarning shakllanishi va taraqqiyotini «umron» tushunchasi bilan bog‘laydi. Mazkur tushuncha odamlarning jamoaviy faoliyati, ijtimoiy hayotning turli shakllarda namoyon bo‘lishi va jamiyat taraqqiyotining mazmunini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir kishilarning bir jamiyatga birlashgan va uyushgan faoliyatini taraqqiyotning muhim omili sifatida ko‘radi. U insonning moddiy ehtiyojlari qondirilishi bilan uning hayotga munosabati va tafakkuri rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham asoslaydi [6].

Ibn Xaldun insonning aqli va qo‘li uning tabiatdagi boshqa mavjudotlardan farqlanishini ta’kidlaydi. Tafakkur yordamida inson himoya vositalarini yaratadi: nayza shoxlar o‘rnini, qilich o‘tkir tirnoqlar o‘rnini, qalqon esa qalin teri o‘rnini bosadi [7]. Bu qarash tafakkurning nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyatni tashkil etuvchi kuch ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama.Sharq mutafakkirlarining qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Forobiy siyosiy tafakkurning axloqiy-intellektual asoslarini hukmdor fazilatlari orqali ochib bergan bo‘lsa, Ibn Sino davlat boshqaruvida adolat, qonun va jamiyat axloqiga e’tibor qaratadi. Ibn Xaldun esa jamiyatning jamoaviy hayoti, taraqqiyoti va inson tafakkurining amaliy imkoniyatlarini tahlil qiladi. Ularning qarashlarini birlashtiruvchi jihat - davlat boshqaruvi samaradorligini insonning ma’rifati, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘lashdir.

Shu asosda siyosiy tafakkurni davlat boshqaruvida qaror qabul qilish, siyosiy jarayonlarni anglash, davlat va jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtirish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks intellektual-axloqiy sifat sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuv davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda ularning siyosiy va fuqarolik mas’uliyatini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Ibn Xaldun merosini nazariy tahlil qilish davlat va jamiyat munosabatlarida siyosiy tafakkurning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Forobiy davlat rahbarining bilim, adolat, haqiqat, jasorat va ma’rifat kabi fazilatlarini siyosiy boshqaruvning zarur sharti sifatida ko‘rsa, Ibn Sino adolat va qonunning davlat hayotidagi ahamiyatini yoritadi. Ibn Xaldun esa jamiyat taraqqiyoti va inson tafakkurining amaliy imkoniyatlarini «umron» konsepsiyasi orqali tushuntiradi. Ushbu ta’limotlarning umumiy jihati inson qadrini ulug‘lash, davlat va jamiyat boshqaruvida adolatni qaror toptirish, ma’rifatli va mas’uliyatli boshqaruv subyektini shakllantirish hamda jamiyat manfaatlarini hisobga olishdan iborat. Mazkur nazariy meros zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy tafakkurni rivojlantirish uchun metodologik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. 4-том. Миллий тикланишдан – миллий юкланиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2020. – Б. 230.
2. Аристотель. Политика // Аристотель. Сочинения: В 4 т. Перевод с древнегреч. С.Жебелева. – М.: Мысль, 1983. – Т. 4. – С. 4–5.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Марҳам Махмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 244–245.
4. Ибн Сино. Дониш-намэ // Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т. 1. – Душанбе: Ирфон, 1980. – С. 314.
5. Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. – Душанбе: Дониш, 1985. – С. 235.
6. ابن خلدون. المقدمة. – مصر, 1912م. – ص. 298.
7. Халдун Ибн. Введение // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX–XIV вв. – М., 1961. – С. 554.